

O‘QUVCHILAR TEXNIK IJODKORLIGINING METODOLOGIK ASOSLARI

O‘razaliev Faxritdin Baxritdinovich

Jizzax Politehnika instituti

“Muxandislik va kompyuter grafikasi” kafedrası assistenti

Аннотация: Ушбу мақолада ҳозирги кун талабидан келиб чиқадиган бўлсак, ўқувчилар техник ижодкорлиги фаолиятида диалектиканинг алоҳидалик, махсуслик ва умумийлик категорияларини тўғ‘ри ҳисобга олиш катта методологик ва амалий аҳамиятга эга эканлиги. Бу эса ўз навбатида табиат ва жамиятдаги янгиликлар кўпинча бирданига вужудга келмаслиги хусусида атрофлича тушунчалар берилган.

Калит сўзи: назария ва методология тушунчаси, г‘оя, қарашлар хилма хиллиги, тасаввурлар, шакл, усул ва тамойиллар.

МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ТЕХНИЧЕСКОГО ТВОРЧЕСТВА СТУДЕНТОВ

Уразалиев Фахритдин Бахритдинович

Ассистент кафедры “Инженерная и компьютерная графика”

Джизакского политехнического института

Аннотация: В данной статье, исходя из актуальной потребности, большое методологическое и практическое значение имеет правильный учет диалектических категорий индивидуальности, специфики и общности в деятельности технического творчества учащихся. Это, в свою очередь, дает детальное понимание того факта, что инновации в природе и обществе часто появляются не сразу.

Ключевые слова: понятие теории и методологии, идея, многообразие взглядов, воображение, форма, метод и принципы.

METHODOLOGICAL BASIS OF STUDENTS' TECHNICAL CREATIVITY

Urazaliev Fakhriddin Bakhritdinovich

Assistant of Jizzakh Polytechnic Institute

Annotation: *In this article, based on the current demand, it is of great methodological and practical importance to correctly take into account the dialectic categories of individuality, specificity and generality in the activity of students' technical creativity. This, in turn, gives a detailed understanding of the fact that innovations in nature and society often do not appear all at once.*

Keywords: *concept of theory and methodology, idea, diversity of views, imagination, form, method and principles.*

Texnik ijodkorlik masalalari maqsadi va vazifalaring to'liq muvaffaqiyatli amalga oshirish ko'p jihatdan bilish nazariyasi va metodologiyasiga, ijodkorlik jarayonidagi o'zlashtirishlar psixologiyasiga, faoliyatning didaktik tamoyillariga va ijodkor shaxsni shakllantirish hamda tarbiyalashning pedagogik asoslariga tayanadi. Chunki, nazariya va metodologiya tushuncha, g'oya, qarashlar xilma xilligi, tasavvurlar, shakl, usul va tamoyillarni tekshirib oydinlashtiradi. Bu esa, ijodkorlik faoliyati samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Texnik ijodkorlik tushunchasini talqin etishdan oldin, uning asosiy tashkil etuvchisi– «faoliyati» ning mohiyatini oydinlashtirib olamiz.

Faoliyat – bu o'rab turgan tashqi dunyoni maqsadga muvofiq o'zgartirish va qayta qurishga yo'g'rilgan insonlarning o'ziga xos faol munosabatlari shakli.

O'quvchilar texnik ijodkorligi odatda amaliy faoliyat sifatida namoyon bo'lsada, aslida u nazariya bilan asta-sekin boyib boradi, bu esa texnik ijodkorlikni ham nazariy va ham amaliy faoliyatlar majmuasi deb qarashni taqozo etadi [1].

Texnik ijodkorlikning amaliy ishlar va nazariyalar bilan birligi tushunchasi uni quyidagicha ta'riflashga imkon beradi.

Texnik ijodkorlik – bu o'quvchilarni mehnat, o'qish, yangi bilimlarni mustaqil o'rganish, o'zini–o'zi takomillashtirish va shaxsiy moyilligi (layoqatini) ro'yobga chiqarishga tayyorlash, tanlagan kasbi va mutaxassisligiga oid qobiliyat va olg'a intilishlari bo'yicha ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga maqsadli yo'naltirilgan faoliyatdir.

O'quvchilar texnik ijodkorligiga qay yo'sinda ta'rif berilmasin, shu narsa aniqki, ularning barchasi ularning texnik fikrlashini rivojlantirish va tarbiyalash bilan bog'liq faoliyatni o'zida ifodalaydi va fanlararo nazariy bilimlarni amaliy faoliyatga qo'llashga qaratilgan. Bu faoliyatda nazariya eng muhim hisoblanadi, chunki aynan nazariy g'oyalar avval tug'iladi, so'ngra ular amalda sinab ko'riladi. Odatda, nazariya faoliyat bilan birga foydalanilmaydi, ba'zan nazariyaning rivojlanishi va shakllanishi amalga oshishi uchun bir necha yillik kuzatish, tadqiqot va tajribalar o'tkazishni talab qiladi. Shundan so'ngina ya'ni nazariya o'zini amalda oqlagandan so'ng texnik ijodkorlikda qo'llaniladi [2].

Texnik ijodkorlikda qo'yilgan masalaning yechimini topishning **ikkita** yo'li mavjud bo'lib, ular fikriy tasavvur harakatining xuddi jo'natish punktidan chiqayotgan transport singari alohidalikdan, maxsuslikka va undan umumiylik tomon borish va aksincha, umumiylikdan chiqib, maxsuslikka va undan alohidalik tomon kelish yo'llaridir.

Bundan, ilmiy fikrlash (tafakkur)da ikkita o'zaro bir-biridan farq qiluvchi yo'nalish mavjudligi kelib chiqadi:

birinchisi-tafakkurning kashfiyot, haqiqatni bilish tomon harakatlanishi; **ikkinchisi**-ijodkorning aniqlangan haqiqat haqidagi ma'lumotga ega bo'lishi, ya'ni kashfiyot (yoki umuman olganda biror yangi bilimlar) haqidagi fikrni izohlovchi axborotlarni boshqa kishilar ongiga singdirish, ularning bu fikrlarni tasavvur qilishga erishishga qaratilgan yo'nalish.

Mazkur ijodkorlik faoliyat-yo'llarini o'zaro qiyoslab ko'rib, ikkinchi yo'l birinchi yo'lga qarama-qarshi bo'lishi ham mumkin degan xulosaga kelinadi. Aynan ana shu vaziyat, ya'ni, o'quvchilar texnik ijodkorligi qanday yo'l bilan sodir bo'ladi va ular to'g'risidagi axborotlar qay tarzda to'planib bayon qilinadi degan muammo haqidagi masalalarni to'g'ri hal qilish, o'quvchilar texnika ijodkorligida tafakkur harakati umumiy nazariyasini ishlab chiqishda katta ahamiyatga ega. Aytish mumkinki, o'quvchi ijodkorlik ishi bilan shug'ullanishi jarayonida birinchi yo'l ya'ni alohidalikdan, maxsuslik va undan umumiylikka o'tish (oddiy referat yozishdan boshlab uni diplom ishi yoki ixtiro, ishlab

chiqarishda qo'llashga tavsiyanoma, ishlanma va xakazolar bilan yakunlashgacha) muhim hisoblanadi va u o'quvchilarning har xil ilmiy fikrlash turlarini, ishining yakunida ba'zi ma'lumotlarning keraksizligi uchun, ularni tashlab yuborishi kabi murakkab vaziyatlarni boshidan kechirishi bilan psixologik jihatdan asoslanganligi tufayli o'zining o'z amalda isbotini topib kelmoqda.

Ijodiy tafakkur harakatining falsafiy asoslariga ko'ra ilmiy fikrlash-alohidalikdan maxsuslikka va undan umumiylik tomon haqiqatni bilish sari harakatlanadi. Aynan mana shu sxema mantiqning predmetini tashkil qiladi. Bu mantiq predmeti, haqiqatni bilish yo'lidagi adashishlar, unga borishning egri-bugri yo'llari yoki to'g'ri yo'ldan borishi, mumkinligi, shuningdek undagi «fikriy to'siqlar» va undan o'tishga ko'maklashuvchi «ko'prik» (zinapoya) larga e'tiborni qaratmaydi, yoki boshqacha aytganda yuqoridagi ilmiy bilish yo'lidagi har xil qarama-qarshiliklar uni qiziqtirmaydi. Mantiq eng so'ngi natija-haqiqatning sof holda bo'lishini, ya'ni bilishga qaratilgan tafakkur harakatini tan oladi [3].

Psixologiyada esa uning aksicha bo'lib, ya'ni uning predmeti haqiqatni bilishga eltuvchi texnika fikrlash harakati yo'lining egri-bugriligi va uning sababi, bu yo'ldagi to'siqlarning qanday paydo bo'lishi va uni yengib o'tishni o'rganish, qisqa va oson yo'llar bilan ilmiy haqiqatga erishish uning asosini tashkil qiladi [4].

Yuqorida aytilgan mantiq va psixologiya o'rtasidagi munosabatlar mohiyati texnik ijodkorlik masalalarini yechishda har tomonlama chuqur tahlil qilish va o'rganishni taqozo etadi.

Har qanday haqiqiy bilish, zaruriy kuzatuvlar olib borish, hisob-kitob va tajribalar qilish, faktlarga ajratish, faktlarni to'g'ri hisobga olish, sinflarga ajratish, faktlarni taqqoslash, umumlashtirish, isbotlash, xulosa chiqarish va tekshirib ko'rishlardan iborat (1-shakl) [5].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES):

1. Alimov N. Talabalar ilmiy texnikaviy ijodkorligi ijtimoiy pedagogik tizim sifatida. Kasb hunar ta'limi: –T.: –2006. –№3. 18-20 b.

2. Alimov N., Ismoilov T. Ilmiy uslubiy manbalarda ijod-korlik tushunchasi va uning o'ziga xos tomonlari. «Pedagogika faninig barkamol avlodni shakllantirishdagi o'rni» Tez. dok. Res. ilm. konferen. «Sangzor». –T.: 2003. 4-9 b.

3. Alimov N., Tog'ayev X., Turmatov J. O'quvchilarni texnik ijodkorlik faoliyatiga rahbarlik qilish. Kasb hunar ta'limi: –T.: –2004. №3. 26-27 b.

4. Alimov N., Tog'ayev X. Nauchno-metodicheskie osnovy sistemizatsii znani i razvitie tvorcheskiy myshleniy budущix uchiteley «professio-nalnoe obrazovanie» «Yangi texnologiyalar iqtisodiy taraqqiyotning asosiy omili» Tez. dok. Res. ilm. konferen. Namangan.: -2003. 18-20 b.

5. Alimov N., Tog'ayev X. Texnikaviy ijodkorlikda maqsad, mezon va talabalar ijodkorlik qobiliyati uyg'unligi «Kasbiy ta'lim muammolari» Tez. dok. Res. ilm. konferen. SamDAQI. –Samarqand.: –2003. 14-15 b.